

MUSTAQIL ISHLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI O'QUV
TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING SHART-SHAROITLARI

Ganiyev Salamat Tursinbaevich

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14327995>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'linda gumanitar ta'limning asoslaridan biri O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitishda talabalarning mustaqil ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Fanning maqsadi avlodlar, milliy an'analar, xalqning tarixiy madaniyati davomiyligini ta'minlovchi fuqarolik va vatanparvarlik, tarixiy ongni shakllantirishdir.

Kalit so'zlar. Informatio, diversifikasiya, logistika, konvertatsiya, xronologik.

**CONDITIONS FOR IMPROVING LEARNING TASKS THAT DEVELOP
INDEPENDENT WORK SKILLS**

Abstract. This article presents information on the implementation of independent work tasks by students in teaching the subject of the latest history of Uzbekistan, one of the foundations of humanitarian education in higher education. The purpose of the subject is to form citizenship and patriotism, historical consciousness, ensuring the continuity of generations, national traditions, historical culture of the people.

Keywords. Information, diversification, logistics, conversion, chronological,

**УСЛОВИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ РАЗВИТИЯ
НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ**

Абстрактный. В данной статье представлена информация о выполнении самостоятельных рабочих заданий студентов по преподаванию новейшей истории Узбекистана, одной из основ гуманитарного образования в высшей школе. Цель науки – формирование гражданственности и патриотизма, исторического сознания, обеспечивающего преемственность поколений, национальных традиций, исторической культуры народа.

Ключевые слова. Информация, диверсификация, логистика, конверсия, хронологический.

Kirish. Keyingi yillarda O'zbekistonda boshqa sohalar qatorida milliy O'zbekiston tarixi ham rivojlanib, xalqaro andozalarga yaqinlashmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasiga turli zamonaviy yondashuvlar tatbiq etilayotgani bu boradagi samarali ishlar hisoblanadi. Inson kamolga etishi uchun ta'lim olish, xususan, o'zligini tanishi uchun birinchi navbatda o'z tarixini bilishi lozim. Darhaqiqat, tarixiy xotira bo'lmasa, taraqqiyot ham bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan mamlakatda tarix fanini o'qitish tizimini isloq qilish zarurati mavjud. Keyingi yillarda tarix o'qitish metodikasida ham turli zamonaviy metod va usullar faol qo'llanilmoqda. Olimlar tomonidan an'anaviy metodlar umumlashtirilib to'rtga ajratilib metodlar va ularning usullari aniq ko'rsatilgan [1].

O'zbekistonda oliy ta'limni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun mahalliy va xorijiy tajribalarni puxta o'rganish lozim. Bugungi kunda uzlusiz ta'lim tizimida amalda qo'llanib turgan tarix o'qitish metodikasi an'anaviy reproduktiv usulda. Oliy ta'lim tizimida turli

ixtisosliklarda ta’lim olayotgan talabalarga deyarli bir xil dastur va metodikada mashg‘ulotlar o’tkaziladi. Bugungi imperik kuzatuvlarimiz, dastlabki tahlillarga tayanib shuni aytish mumkinki, aksariyat talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usi mavjud emas, yoki uni namoyon qila olmaydi. Insondagi milliy g‘urur qanday shakllanishi haqida ham to‘xtalish lozim. Bizningcha, oliy ta’lim tizimida, xususan, pedagoglar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlarida har bir bo‘lajak mutaxassisda buyuk o‘tmishga ega xalqimizning sarkarda, jahongir, mutafakkir ajodolari, ularning dunyo tamadduniga qo‘shtigan buyuk hissalarini o‘rgatib, ularning vatanparvarlik tuyg‘ularini oshirish lozim.

Har bir talaba shu yurtda tug‘ilib o‘sgan ekan, bu xalqning qadimiy va boy tarixini mukammal, o‘z o‘quvchisiga, avlodlariga bekamu ko‘st aytib bera oladigan darajada bilishi lozim. Bugungi ta’lim tizimi xususan, tarix o‘qitish metodikasi mana shu jihatga alohida e’tibor berishi lozim. Tarix fanini o‘qitish orqali o‘quvchida avvalo, mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirib olish kerak. Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, – deya ta’kidlanishi tarix o‘qitish fani oldiga mamlakatimiz yoshlarini mantiqiy fikrlaydigan, milliy g‘ururi baland, mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo‘yadi. [2].

Tarixni o‘qitishda yangicha yondashuvlar mamlakat tarixiga xilma-xil faktlar bilan ta’sir ko‘rsatishini o‘z ichiga oladi. Bu erda tabiiy va iqlim omili, geosiyosiy sharoitlar, tashqi siyosat va mustamlakachilik jarayonlari, shaxsiy omil, ma’naviy tamoyillarning jamiyat evolyutsiyasiga ta’siri va mamlakatning tarixiy yo‘liga, ayniqsa, faol ravishda ta’sir ko‘rsatadigan boshqa bir qator o‘ziga xos holatlar mavjud. Bularning barchasi jamiyatning evolyutsiyasini, uning barcha institutlari bilan, uning asosiy ziddiyatlari bilan tahlil qilish imkonini beradi.

Tarixni o‘qitishda yangi yondashuv uning barcha tarkibiy elementlari o‘rtasida yaqin ichki munosabatlar mavjud bo‘lgan jarayon sifatida taqdim etilishi mumkin. Mamlakat tarixida hech bir davr, hech qanday muhim shaxs oldindan kutilmaganda tayyor holatda mavjud bo‘lmaydi.

O‘zbekiston tarixini o‘qitishda muhim yangilik elementi uning jahon tsivilizatsiyalari tarixidagi o‘rni va rolini tahlil qilishdir. Bu jahon tarixiy jarayonining eng muhim tendentsiyalarini aniqlash imkonini beradi, ayniqsa, birinchi va ikkinchi renessenslarning Osiyo va Evropa tsivilizatsiyalariga katta ta’sir ko‘rsatganini boshqa davlatlar tarixi bilan solishtirgan holda o‘qitish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Buyuk tarixiy shaxslarni har tomonlama yosh avlodga tushuntirish, u bilan bog‘liq tarixiy faktlarni, xorijiy olimlarning ta’rifu tavsiflarini keltirgan holda dars mashg‘ulotlarini tashkil etish lozim.

Milliy tarixni o‘qitishda yangi yondashuvlar va tushunchalarni izlash o‘tmishning barcha tadqiqot yuklarini to‘liq qayta ko‘rib chiqishni, alohida voqealar va faktlarni soxtalashtirishni yoki yashirishni anglatmaydi. Aksincha, dars mashg‘ulotlarida talabalarning o‘zlariga tarixga oid ko‘p variantli axborotlarni aniqlashtirish topshiriqlarini berish kerak. Bu talabaning mustaqil ishslash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Axborot – (lot. informatio – tushuntirish, bayon qilish) – shartli belgililar yordamida shaxslar, predmetlar, dalillar, voqealar, hodisalar va jarayonlar haqida, ularni tasvirlash shaklidan qat’iy nazar uzatiladigan va saqlanadigan ma’lumotlar [3].

Oliy ta’lim muassasasida tarix fani o‘qituvchilari talabalarini mustaqil ta’lim olishga, o‘zlarini ma’lumotlar ustida ishlashga tahlil qilishga o‘rgatishi kerak. Talabalar mamlakat tarixi, o‘tmishining dolzARB masalalari bo‘yicha ilmiy munozaralarda faol ishtirok etishini, talabalar ilmiy anjumanlarida ishtirok etishini, tarixiy yubileyлari uchun asarlar tanlovlar, insholar tayyorlash, elektron taqdimotlar, o‘z oilasi tarixini o‘rganish, tarixiy monografiyalarga sharhlar yozish va boshqa topshiriqlarni bajvrishga o‘rgatilishi maqsadga muvofiq.

Afsuski, aksariyat oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni an’anaviy tarzda olib boriladi va vazirlik tomonidan tasdiqlangan tarix fani bo‘yicha milliy taxminiy dasturdan foydalaniladi. O‘qituvchilar ham dastur tuzishga ijodiy yondashmaydi. O‘quv topshiriqlari har bir o‘qituvchi tomonidan mustaqil va mukammal tuzilsagina dars samarali bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasasida talabaga hamma bilimni o‘rgatib bo‘lmaydi, ayniqsa, tarix darslari orqali. Talabalarga ma’lumotlar bilan qanday ishlash, ma’lumotlarni qanday va qaerdan qidirish, qanday solishtirish, solishtirganda nimaga asoslanish kabi bilim va ko‘nikmalar o‘rgatilishi kerak.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘qitishda muammolar

1.1-jadval

T\rl	Talabalarni mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bo‘liq muammolar	Natijada
1	Tarixga doir ma’lumotlarni o‘qitishda nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni mustaqil o‘rganishga tizimli yo‘naltirmaslik	Talabalarda mantiqiy fikrlash ko‘nikmasi yetarli rivojlanmay kelmoqda.
2	Tarix o‘qitishda, asosan, xronologik ma’lumotlarni yodlash va qayta aytib berishning dars jarayonida ustuvorligi	Ma’lumotlarni tanlash, taqqoslash, mustaqil fikrini yozma yoki og‘zaki bayon qilish malakasi rivojlanmay qolmoqda.
3	Mustaqil ishslashga yo‘naltiruvchi topshiriqlarning pragmatik yondashuvga mos kelmasligi	Mustaqil ta’lim topshiriqlari ustida samarali ishlay olmaydi.
4	O‘qituvchilarning mustaqil ta’lim topshiriqlari ustida ishslash, pragmatik savol va topshiriqalar berish ko‘nikmasining yetari emasligi	Tarix o‘qitish mashg‘ulotlari hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni bera olmaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida ma’ruzalar ta’lim olishga ishtyoqni oshirishga xizmat qiladi. Shu o‘rinda ma’ruza nima ekanligiga ham turli munosabatlar bildirilganini ta’kidlash lozim. Jumladan, “Ma’ruza – o‘quv mashg‘ulotlarining muhim turlari sifatida fanning metodologiyasini ochib beradi, shuningdek, o‘rganilayotgan fan bo‘yicha ilmiy bilimlar beradi, dunyoqarashni shakllantiradi, o‘rganilayotgan mavzuning eng muhim masalalarini keng tahlil qiladi, kursantlarning bilish faoliyatini faollashtiradi, materialni mustaqil o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari va metodikasini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, ma’ruza mashg‘ulotlarida ko‘rib

chiqiladigan savollarning asosiy ilmiy-nazariy qoidalari va ularning huquqni qo'llash faoliyatidagi amaliy ahamiyati olib beriladi va mazkur fan bo'yicha mavzular rejasida nazarda tutilgan tegishli mavzularni o'rganish bo'yicha tavsiyalar beriladi”[4].

Ayni paytda, ta'lif-tarbiya jarayonini individuallashtirish ijodiy fikrlovchi shaxsniga shakllantirish dolzarb bo'lib bormoqda. Ma'ruza soatlari hajmini qisqartirish va asosiy e'tiborni mustaqil ishlarga, shuningdek, seminar mashg'ulotlariga qaratish tavsiya etilmoqda, bu, asosan, ilmiy munozara xarakteriga ega bo'lishi kerak. Internet resurslaridan faol foydalanish, eng yangi axborotlar bilan ishlovchi mustaqil talabalarning ta'lif olish imkoniyatlarini kengaytirish talab qilinmoqda. Tarix darslarida ham ta'lif jarayonida tobora ko'proq qo'llanilayotgan multimediali o'qitish vositalari o'quv materiali bilan ishlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Har qanday zamnaviy elektron darslik ham talabaning o'qituvchi bilan jonli muloqoti o'rnini bosa olmaydi. Ayniqsa, uning o'ziga xosligi, umumiy va pedagogik madaniyati, nutqiy qobiliyatlarini milliy tarixni o'qitish jarayonida namoyon bo'ladi va tanlangan mualliflik kurslarini o'qish tarix fanining muayyan muammolarini talqin qilish, uning so'nggi yutuqlaridan ijodiy foydalanish imkonini beradi.

Muhokama. Xullas, tarix o'qitish orqali talabada, avvalo, o'tmish haqida tasavvur hosil bo'ladi, tarixda o'z ajdodlarning qilgan buyuk ishlari orqali milliy g'urur, faxr va iftixon tuyg'ulari rivojlanadi, tafakkuri teranlashadi, o'zligini anglaydi, kelajakda o'zi nimalar qilishi lozimligini anglab oladi, qolaversa, pedagogik nuqtai nazardan mustaqil fikrlash, izlanuvchanlik, taqqoslay olish, umumlashtira olish, umumiylidkan xuchusiylikni ajratib olish, taqdimot qila olish, shuningdek, kommunikativ muloqatda o'z fikrini bayon qila olish kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. Bunda o'qituvchilar asosiy e'tiborni talabaga tayyor ma'lumotni taqdim qilish emas, mustaqil izlash, ma'lumotni qidirib topish, berilgan savol va topshiriqlarga mantiqli javob topa olishga o'rgatishlari lozim bo'ladi.

Tarix fanini o'qitish orqali o'quvchida avvalo, mantiqiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirib olish kerak. Zero, "yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" , – deya ta'kidlanishi tarix o'qitish fani oldiga mamlakatimiz yoshlarini mantiqiy fikrlaydigan, milliy g'ururi baland, mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi.

Milliy tarixni o'qitishda yangi yondashuvlar va tushunchalarni izlash o'tmishning barcha tadqiqot yuklarini to'liq qayta ko'rib chiqishni, alohida voqealar va faktlarni soxtalashtirishni yoki yashirishni anglatmaydi. Aksincha, dars mashg'ulotlarida talabalarning o'zlariga tarixga oid ko'p variantli axborotlarni aniqlashtirish topshiriqlarini berish kerak. Bu talabaning mustaqil ishslash ko'nikmasini rivojlantiradi. Axborot – (lot. informatio – tushuntirish, bayon qilish) – shartli belgilar yordamida shaxslar, predmetlar, dalillar, voqealar, hodisalar va jarayonlar haqida, ularni tasvirlash shaklidan qat'iy nazar uzatiladigan va saqlanadigan ma'lumotlar.

“O'zbekiston tarixi” fanida xronologik ma'lumotlar quyidagi tartibda taqdim qilinadi: “Janobi Oliylari! Xonimlar va janoblar! Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbaridan nutq so'zlash imkoniyati yaratilgani uchun samimiy minnatdorlik izhor etishga ijozat bergaysiz. Bizning xalqimiz bundan bir necha hafta oldin o'z davlat mustaqilligining 26-yilligini keng

nishonladi. Bugungi kunda O‘zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an’analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko‘zlangan maqsad - "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat. Umumxalq muhokamasidan so‘ng besh yilga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Bu strategiyani ishlab chiqishda biz o‘zimizga chetdan nazar tashlab, salohiyat va imkoniyatimizni xolis baholash bilan birga, xato va kamchiliklarimizni ham atroflicha tanqidiy tahlil qildik. Strategiya – bu yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturidir. Bu hujjat hozirgi vaqtida hayotga izchil joriy etilmoqda. 2017-yil mamlakatimizda Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili, deb e’lon qilindi. Bizning maqsadimiz - yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat. Ishonchimiz komil: xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak. Mamlakatimizning barcha hududlarida Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalarini tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o‘zlarining dolzarb muammolarini hal qildi. Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari janob Al-Husaynning tashrifi yakunlari bo‘yicha inson huquqlarini himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash yuzasidan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Odamlarning erkin harakat qilishini cheklaydigan xorijga chiqish vizalari singari umrini mutlaqo o‘tab bo‘lgan o‘tmish qoldiqlari bekor qilindi. Inson huquqlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan ochiq muloqotimiz faollahib bormoqda. Insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, shaxsni qamoqda saqlash bilan bog‘liq ko‘plab holatlar qayta ko‘rib chiqildi. Ekstremizm g‘oyalari ta’siriga tushib qolgan, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan fuqarolar ijtimoiy reabilitatsiya qilinmoqda, ularni sog‘lom hayotga qaytarish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Endilikda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi barcha huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati parlament va fuqarolar tomonidan doimiy nazorat qilib borilmoqda. Mamlakatimizda siyosiy partiylar, fuqarolik jamiyatining roli ortib bormoqda, sud organlarining chinakam mustaqilligi ta’minlanmoqda. Ommaviy axborot vositalarining o‘rni sezilarli darajada ortib bormoqda. Iqtisodiyot tizimini liberallashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning eng muhim yo‘nalishlaridir. Biz oddiy bir xaqiqatdan kelib chiqmoqdamiz: xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi.

O‘zbekiston shu oyning boshidan milliy valyutani erkin konvertatsiya qilish tizimiga to‘liq o‘tdi. Bu borada aholi uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni yumshatish bo‘yicha barcha zarur choralar ko‘rildi. Mamlakatimizda ilk bor tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Ombudsman instituti joriy etildi. Biznes sohasidagi soliqlar sezilarli ravishda qisqartirildi, kredit olish imkoniyatlari kengaytirildi. Yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi, ularda investorlarga keng imtiyozlar yaratib berildi. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, biz Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan sheriklik aloqalarini yangitdan tikladik. Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar

Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to‘la hamohang ekanini ta’kidlashni istardim. Hurmatli majlis ishtirokchilari! Biz qat‘iy ishonamiz, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o‘rin tutadi. O‘zbekiston ushbu tashkilotning bosqichma-bosqich isloh etilishi tarafidir. Biz Xavfsizlik Kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda kengaytirish zarur, deb hisoblaymiz”[5].

Darslik uchun tanlangan matn xronologik ma’lumotlarga boy, ammo o‘quvchining xotirasida qoladigan yoki unga hayot uchun zarur bo‘ladigan ko‘nikma yoki malakani berishga to‘la xizmat qilamydi. Talaba mustaqil ishlab, mazkur nutqning mohiyatini boshqalarga, xususan, maktab o‘quvchilariga qisqa va lo‘nda tushuntirib bera olishi kerak.

Avvalo, matnni qayta ishlab o‘qib tushunish uchun qulayroq formatga keltirib olish lozim. Me’yordan ortib ketgan xronologik ma’lumotlar o‘quvchini zeriktiradi. Imkon qadar ortiqcha ma’lumotlarni qisqartirish, eng muhim ma’lumotni mantiq bilan bog‘lagan holda taqdim qilish samarali bo‘ladi. Illyustratsiya materiallari ham kam. Quyida taklif qilingan matnga ishlab chiqilgan o‘quv topshiriqlarini tahlil qilib ko‘ramiz:

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti va obyekti nimalardan iborat? 2. Tarixiylik tamoyilining mazmun-mohiyati nimadan iborat?

3. Tarixni tadqiq etishda holislik tamoyilining ahamiyati nimada?

4. Ilmiylik tamoyili nimalarga asoslanadi?

5. Qadimgi va o‘rta asrlarga oid qanday manbalar mavjud?

Misollar keltiring.

6. Sovetlar davrida tariximiz qanday davrlashtirilgan?

7. O‘zbekiston hududida ibridoij jamiyat bo‘lganmi? Qaysi manbalarни bilasiz?

8. O‘zbekiston hududida sun’iy sug’orish qaysi vaqtida boshlangan?

9. Xitoy manbalarining vatanimiz tarixini o‘rganishda ahamiyati nimadan iborat?

10. Tariximizni o‘rganishda va keyingi avlodlarga yetkazishda tarixiy xotiraning ahamiyati?

11.“Tarix- xalq ma’naviyatining asosidir” iborasini qanday tushunasiz?

12. Sovetlar davrida tariximiz qanday davrlashtirilgan?

Vazifalar: 1. “Mening kichik Vatanim-mahallam, qishlog‘im, tug‘ilib o‘sgan joyim” mavzusida dafitarda o‘z mahallasi, qishlog‘i, tug‘ilib voyaga yetgan kichik Vatani tarixini o‘rganib, insho tayyorlab kelish. Fotosur’atlar, slayd shaklida taqdimot qilish ham tavsiya etiladi.

2. I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarlarini chuqr o‘rganish.

3. “Avesta” tarjimalari bilan tanishish va o‘rganish asosida mazkur manbaning tarixiy ahamiyatini ko‘rsatib berish.

Mustaqil ish uchun vazifalar: I. A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarini o‘rganib chiqib, mustaqil ish tayyorlash (referat, slayd-, buklet-taqdimot, ma’ruza, insho, fotosur’atlar to‘plami shakllaridan birini tanlab) [6].

Atamalar izohi!

Diversifikatsiya – (lot.diversificatio - o‘zgarish, xilma-xil) ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy bankrotlikni oldini olish maqsadida ishlab chiqariladigan mahsulot

assortimentining kengay- tililishi, mahsulot sotiladigan bozorlarni o‘zgartirish yoki yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashish.

Logistika - (yun. logistike - hisoblash, muhokama san’ati) Inson faoli- yatining u yoki bu sohasini moddiy-texnik ta’minalashni boshqarish tizimi.

Konvertatsiya - (lot. convertatio - o‘zgartirish, aylantirish) Milliy valyutaning amaldagi kurs bo‘yicha boshqa xorijiy valyutalarga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtirilishi.

1. 2017-yil valyuta sohasida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?
2. O‘zbekistonda xususiylashtirish jarayonlari va mulkdorlar sinfining shakllanishi borasida davlat tomonidan amalga oshirilgan siyosat.
3. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga oid islohotlardagi muvaffaqiyatlar va muammolar nimalardan iborat?
4. Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida transport tizimi, temir yo‘llar va havo yo‘llarining ahamiyati haqida gapiring.
5. Iqtisodiy taraqqiyotda xorij investitsiyasini jalb etish siyosatining aha- miyatini tushuntiring.
6. Erkin iqtisodiy zona deganda nimani tushunasiz?

Yuqorida 6 banddan iborat savol va topshiriq berilgan bo‘lib ularni matnga yo‘naltirish, savollar sonini ko‘paytirish, ma’lumotlarni qidirib topishga yo‘llash lozim. Jumladan, “4-savol: Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida transport tizimi, temir yo‘llar va havo yo‘llarining ahamiyati haqida gapiring”. Bu topshiriq o‘quvchiga aniq javob berish imkonini bermaydi.

Xulosa. O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘qitish orqali o‘quvchida, avvalo, o‘tmish haqida tasavvur hosil bo‘ladi, tarixda o‘z ajdodlarning qilgan buyuk ishlari orqali milliy g‘urur, faxr va iftixon tuyg‘ulari rivojlanadi, tafakkuri teranlashadi, o‘zligini anglaydi, kelajakda o‘zi nimalar qilishi lozimligini anglab oladi, qolaversa, pedagogik nuqtai nazardan mustaqil fikrlash, izlanuvchanlik, taqqoslay olish, umumlashtira olish, umumiylidkan xuchusiylikni ajratib olish, taqdimot qila olish, shuningdek, kommunikativ muloqatda o‘z fikrini bayon qila olish kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi. Bunda o‘qituvchilar asosiy e’tiborni talabaga tayyor ma’lumotni taqdim qilish emas, mustaqil izlash, ma’lumotni qidirib topish, berilgan savol va topshiriqlarga mantiqli javob topa olishga o‘rgatishlari lozim bo‘ladi. Davlat tarixini o‘qitishda milliy iftixon uyg‘otadigan, o‘quv topshiriqlari mantiqiy fikrlashga o‘rgatadigan savol va topshiriqlar berish dars samaradorligini oshiradi.

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha yangi islohotlar ketma-ket olib borilmoqda. Kredit-modul ta’lim tizimi joriy qilingach talabalarning mustaqil ta’limiga alohida e’tibor berilmoqda. “Mustaqil ish” tushunchasi mualliflar tomonidan “mustaqil” tushunchasiga qanday mazmunda kiritilganiga qarab turli ma’nolarda qo‘llaniladi: talaba o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz ishni o‘zi bajaradi; talaba mustaqil fikrlaydi, o‘quv materialiga o‘zini yo‘naltiradi; o‘quv yukini majburiy (auditoriya) auditoriyalarga va auditoriyadan tashqari ishlarga ajratadigan ko‘plab tadqiqotchilar ikkinchisini mustaqil deb atashadi. Talabalarning mustaqil ishlarini talaba o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz olib boradigan, o‘zi rejalashtiradigan va bajaradigan o‘quv

jarayonining bir qismi sifatida belgilash an'anaviy bo'lib qoldi. Keyingi yillarda tarix o'qitish metodikasida ham turli zamonaviy metod va usullar faol qo'llanilmoqda. Olimlar tomonidan an'anaviy metodlar umumlashtirilib to'rtga ajratilib metodlar va ularning usullari aniq ko'rsatilgan [7].

Mustaqil ish talabalar tomonidan bilimlarni izlash, uni tushunish, mustahkamlash, umumlashtirish va tizimlashtirish, aqliy va motorli faoliyatni rivojlantirish bo'yicha ko'nikma va ko'nikmalarni egallash uchun vazifalarni bajarishdan iborat.

REFERENCES

1. Сагдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. Тарих ўқитиши методикаси. Тошкент: ТДПУ, 2008. – Б. 48-61.
2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. –14-б.
3. Rahmatullayev. M.A. «Masofaviy ta'limning yetti jihatil». - Toshkent, 2009;
4. Hamdamov R., U.Begimkulov, NTayloqov. Ta'limda axborot texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun. OzME davlat ilmiy nashriyoti. - Т.: 2010, - 120 b.
5. Рахматуллаева А.Р. Олий таълимда тарих фанларини ўқитиши методикаси” модули бўйича услубий қўлланмана. Т., 2018. 56-б.
6. Ostonov O.O'zbekistonning eng yangi tarixi. (O'quv qo'llanma) Т.: “Lesson Press” nashriyoti, 2022., 245 b.
7. Сагдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. Тарих ўқитиши методикаси. Тошкент: ТДПУ, 2008. – Б. 48-61.